

MA'NAVIYATNI YUKSALTIRISHDA KITOBXONLIK O'RNI**Mamatova Dilorom****Roziqova Hulkar****Norov Odil***Qar MII akademik litsey tarix fani o'qituvchilari*

Soat bonglari ketma-ket, birin-sirin jaranglab , lahzalar tezyurar poyezd singari shiddat bilan o'tib ketmoqda...

Kechagina o'rtoqlarimiz bilan mashinalar ortidan quvlab chopgan, bog'dan uzum o'g'irlab bog'bondan dakki eshitib qochgan, dunyolarga sig'may sho'xliklar qilib o'ynagan, osmonga tikilib ulg'ayishni orzu qilayotgan yosh bola edik. Mana bugunchi Odamzod qiziq bo'larkan bolaligida ulg'ayib "katta odam" bo'lishni orzu qilarkan-u, endi o'sha beg'ubor orzul ariga yetdim deganida bolaligiga qaytishni qo'msarkan. Ota-onamni yaxshi ko'raman, ularni dunyolarga alishmayman, ular mening hayotim deya o'ylar ekan-u, aslida esa ularning tirnog'iga ham arzimmas ekan. O'zingiz o'ylab ko'ring qaysi biringiz oxirgi marta dadajoningining poyabzalini tozalab, paypoqlarini yuvib berdingiz? Ey, dunyolarni yelkasida ko'tarib yurgan inson , qachon oxirgi marta mushfiq va intizor onajoningizga atigi bitta ro'molcha tuhfa qildingiz? Garchi olib borish qo'lingizdan kelmasa –da "Jannatim onajonim, Ka'batullohim dadajonim sizlarni o'zim Hajga olib boraman , o'zim Hoji Ona Hoji Ota qilaman", - deb biron marta aytdingizmi? Ko'ngillarini xursand qildingizmi? Ayting-chi , qachon oxirgi marta munis va mehribon ota –onangizning tabassumlariga sababchi bo'ldingiz? Ko'zlari yo'lingizda to'rt bo'lgan mehribonlarga oxirgi marta qachon Onajon, dadajon sizlarni yaxshi ko'raman , boringizga shukr",- deb aytganingiz esingizdami? O'sha soat millari esa hali – hamon o'z yo'llarida shiddat bilan olg'a bormoqda ...

Ba'zan osmonga tikilganча o'ylab qolaman. "Odamzod qachon o'zini yomonman deb o'ylar ekan-a? Qachon, qaysi odamzod o'zini –o'zi tanqid qilib yasharkan?" Hayotimizda biron qaltis va yomon voqea yuz bersa-yu unda asosiy aybdor o'zimiz bo'lsak ham ularni o'zimizdan soqit qilishga urinamiz. Qalbimizni tinchlantirishga harakat qilamiz. Aslida unday edi, unday qilsang, bunday bo'lardi ,bunday qilsang unaqa", - deb o'zimizni so'roq qilmaymiz. Qalbimizni tergamaymiz. Bilmaymizki, odamzod o'zini tanqid qila olgandagina muvaffaqiyatlarining cho'qqisiga erisha oladi.

Muvaffaqiyat... Menimcha, bu cho'qqini zabt etishni orzu qilmagan biron yosh avlod bo'lmasa kerak. Muvaffaqiyat shunchalik buyuk cho'qqiki, bu cho'qqini zabt etish odamzoddan anchagina sabr, matonat, iroda va kuch-g'ayrat talab qiladi. Ammo shuncha halol sa'y-harakatga yarasha uning mevasi ham totli bo'ladi, albatta. Mvaffaqiyat sari eltadigan yo'lning eng yaxshi sarboni esa bu kitobdir. Ha kitob insonni muvaffaqiyatlarining cho'qqisiga olib chiquvchi uni ma'naviyat va ma'rifat dunyosi tomon eltuvchi mo'jizaviy ko'prikdir. Shunday ko'prikki, o'z manzilingizga

yetib olguningizga qadar u sizni hech ham zeriktirmaydi. O‘z qa‘riga tortib ketib shirin xayollar girdobiga tashlaydi, ba‘zan qalbingizni so‘roqlashga undaydi, ba‘zan yig‘latadi, ba‘zan esa aksincha ,xanda otib kulishga majbur qiladi. Toki ma‘rifat nurlari ila bezalgan dunyoyingizga yetib olguningizgacha ichki dunyoyingizni poklaydi, uni iymon nurlari ila ziynatlaydi. Ko‘zlaringizga shunday nur ato qiladiki, siz bu nur orqali dunyoning ko‘pchilik odamlar ko‘ra olmagan qirralarini ko‘ra olasiz. U yo‘llaringizni chiroq yanglig‘ yoritib, hayotingizni nurga to‘ldiradi. Ha, kitob bizni mana shunday buyuk xazina tomon eltuvchi vosita bo‘ladi. Kitob go‘yoki bir sehrli chashma! Shunday chashmaki , bitmas –tuganmas, shunday chashmaki siz bu chashmadan barcha ezgu xislatlar: insof, diyonat, iymon, oqko‘ngililik, matonat, nafosat, mehr, muhabbat – barcha –barchasiga bo‘lgan chanqog‘ingizni qondira olasiz.

Ba‘zi insonlarga hayron qolaman. Farzandlari biron muvaffaqiyatsizlikka uchrasa yoxud farzandlarining o‘qituvchilaridan yomonroq gap eshitishsa farzandlarning kitob o‘qimasligidan faryod chekishadi. Pedagog sifatida, ana shunday ota – onalardan bir narsani so‘rashni joiz deb bilardim:

- Siz farzandingizni biron marta yoningizga olib kel, o‘g‘lim yoki qizim mana shu kitobni o‘qib beraman,- deb biron marta bolangizga nimadir o‘qib berdignizmi? Farzandiga hali so‘nggi rusumdagi telefon, hali kompyuter, hali mashina, hali zamonaviy kiyim-kechak olib beryotgan, ey inson, o‘sha farzandingizga biron marta aqalli 10 betli kitob sovg‘a qildingizmi? Mayli, kitob o‘qish qo‘lingizdan kelmas ekan, hech bo‘lmaganda farzandingiz uchun 10 daqiqa vaqtingizni ajratib, qo‘lingizga kitob ushlab turing, xolos. Ana o‘shanda ko‘rasiz, o‘yinqaroq o‘g‘lingizning mitti qo‘lchalariga qanday qilib kitob olganini. Axir, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Mayli, hech bo‘lmasa farzandingizni yetaklab, tarixiy qadamjolarini, ulug‘ ajdodlarimiz: Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy singari tarixiy shaxslarning ziyoratlariga olib boring. Farzandingizning qo‘llaridan ushlab, ular haqida so‘zlab bering. Bu bilan farzandingizning mitti yuragida bir tomondan Vatanga, ulug‘ bobokalonlarimizga bo‘lgan muhabbat hissi uyg‘onsa , yana bir tomondan uning xayollarida mislsiz tarix silsilasi mavj ura boshlaydi. Fikrlash qobiliyati, aqliy salohiyati o‘sib, rivojlanib boradi. Ha, kitob va tarix farzandingizni mana shunday beqiyos marralar sari yetaklaydi.

Haqiqatdan ham kitobxonlik madaniyatini ken talqin qilish, uni yuksaltirishda tarix, umuman , ijtimoiy- gumanitar fanlarning o‘rni beqiyosdir. O‘zim pedagog sifatida shu narsaga ko‘p amin bo‘lamanki, mavzu tushuntirish davomida o‘sha voqealarga qiziqib qolgan, bu voqealarni faqat qachon va qayerda sodir bo‘lganigagina emas, balki, ularni qanday sodir bo‘lganiga ham qiziqib qolgan o‘quvchi, albatta, kutubxonaga borib o‘sha voqealar tasvirlangan asarlarni olib, o‘qishga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilarimning mavzularni yanada chuqurroq o‘rganishga va haxshiroq, uzoq muddatga eslab qolishga anchagina foydasi tegadi . Darhaqiqat, badiiy asarlarni o‘qishni yaxshi ko‘radigan insonlar uchun tarix fani unchalik murakkab tuyulmaydi.

Ya'ni, badiiy adabiyot bizga tarix ilmini o'rganish uchun ham keng yo'l ochadi. Yo'q, faqatgina yo'l ochmaydi, balki, badiiy adabiyot va tarix uyg'un tarzda takomillashadi. Birgalikda rivojlanadi. Zero, tarix boyib borgan sari tarixiy mavzudagi kitoblarning ham salmog'i oshib boradi. Ya'nikim tarix ilmi bizga biron voqea hodisa haqid, uning qayerda , qachon, kimlar tomonidan sodir bo'lganligini dalilab bersa, badiiy adabiyot voqealarni qanday sodir bo'lganligining isbotidir. Badiiy adabiyotda qahramonning ichki tuyg'ulari va kechinmalari keng ko'lamda yoritiladi, albatta. Shuningdek, ayniqsa, biz tarix fani o'qituvchilariga butun dars davomida faqatgina tarixiy faktlarga asoslanibgina ish ko'rishdan ko'ra , o'quvchilar bilan birgalikda o'tilayotgan mavzular doirasidagi badiiy asarlar vositasida uzoq moziyga-tarixga sayohat qilganimiz ham ma'qulroq, menimcha. Chunki bu bir tomondan o'sha mavzuni o'quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanishiga yordam bersa, yana bir tomondan o'quvchilarimiz uchun eng samarali dam olish daqiqalari bo'ladi. Zeroki, biron faktni voqelikka asoslanib eslab qolish foydaliroq ekanligi psixologlar tomonidan ham tasdiqlangan. Kitobxonlik madaniyatining yuksalishida, keng ko'lamli tarixiy asarlarning yaratilishida tarix fani, umuman, ijtimoiy-gumanitar- fanlarning o'rni beqiyosligining ahamiyati ham mana shundadir.

Bir so'z bilan aytganda , kitoblar bizga har jabhada mehr ila beminnat saxovat qo'llarini cho'zib turuvchi eng ajoyib va sadoqatli do'stdir! Darhaqiqat, buyuk olim va iste'dodli shoir Umar Xayyom aytganlaridek: "Dunyoda biz bilmagan ilmlar juda ko'p. Vaqt esa juda ham tig'iz. Shunday ekan, azizlar, bilim olishdan hamda kitob mutolaasidan aslo charchamang!